

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA SALOHİYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ganiev Shaxobitdin Xolmatovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik
fanlar kafedrası katta o‘qıtuvchisi, mayor*

Annotatsiya. *Maqolada mudofaa salohiyatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida harbiy xizmatchilarning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali ularning bilim salohiyatini oshirish mumkinligi haqida fikr yuritilgan, shuningdek zamonaviy texnologiyalar bilan samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *mudofaa, kibertahdid, axborot xavfsizligi, zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion va ilmiy yondashuv, raqamli texnologiyalar.*

DISTINCTIVE FEATURES OF USING MODERN TECHNOLOGIES IN ENHANCING THE DEFENSE CAPABILITY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. *The article discusses the effectiveness of using modern technologies to enhance defense capability, the possibility of increasing the intellectual and professional potential of military personnel by organizing training activities based on modern pedagogical technologies, as well as presents proposals and recommendations that enable achieving effective results through the use of modern technologies.*

Keywords: *defense, cyber threat, information security, modern information technologies, innovative and scientific approach, digital technologies.*

“Harbiylar bugungi tinch-osoyishta, dorilomon, farovon hayotimizning kafolati. Ular bor ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, sarhadlarimiz mustahkam”.

Sh.M.Mirziyoev

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko‘rib chiqildi, qo‘shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, Milliy Armiyamizni zamonaviy texnologiyalar, qurol-yarog‘ va texnika vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha o‘ta muhim loyihalar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli kuchlarimizni isloh qilish va har tomonlama modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan, Yangi O‘zbekistonning mustaqilligi va suvereniteti, xalqimiz xavfsizligi va farovonligini kafolatli ta‘minlashga qodir yangi armiyaga aylantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizning Qurolli kuchlar tizimini jahon arenasi talabiga javob bera oladigan professional darajaga olib chiqish bo‘yicha ishlar ham keng ko‘lamda amalga oshirib kelinmoqda. Bunga misol qilib, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan ilgari surilgan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish⁸³ yettinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingani ham alohida ahamiyatga ega.

Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatda ham mudofaa qudratini mustahkamlash, qo‘shinlarning harbiy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy ilm-fanni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari ilgari surildi. Jangovar tayyorgarlik tizimini innovatsion va ilmiy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish, axborot almashinuvi va qarorlar qabul qilish bo‘yicha zamonaviy harbiy va ilmiy ishlanmalarni amalga keng joriy etish belgilab olindi.

Shu bilan birga, bugungi kunda yangi bosqichga ko‘tarilayotgan mudofaa sanoatini modernizatsiya qilish va salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan Mudofaa sanoati agentligini Mudofaa vazirligi tizimiga o‘tkazish va uning faoliyatini yanada rivojlantirish yuzasidan topshiriq berilganligi ham o‘ziga hos ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitdagi islohotlar harbiy xizmatchilarning ongini sifat darajasiga ko‘ra yangi bosqichga olib chiqish, shaxsiy tarkibni tarbiyalashning butun tizimini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish borasida ulkan ishlarni olib borish zaruriyatini taqozo etadi.

Harbiy jamoalarda tinchlik vaqtida harbiy tayyorgarlikning yuqori darajasini ta‘minlash uchun hamda urush sharoitida harbiy harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishlari uchun zaruriy yuqori ma‘naviy-harbiy ruh, psixologik barqarorlik va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha bilim salohiyatini shakllantirish hozirda ham o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borayotganligi bois, dunyoda zamonaviy texnologiyalar ham jadal rivojlanib, jamiyat tuzilishini o‘zgartirmoqda, shu bilan bir qatorda mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi kuchlar va kibertahdidlar ham turli xil ko‘rinishlarda paydo bo‘lib rivojlanib kelmoqda. Shu bois bugungi kunda harbiy

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

xizmatchilar zamonaviy texnologiyalar sohasi bo'yicha tayyor bo'lmisalar, rivojlanib kelayotgan yangi turdagi kibertahdidlarni, axborot xavfini oldini olish, aniqlash hamda ularga qarshi kurash borasida juda ko'p xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishlari mumkin, natijada o'zlarining oldilariga qo'yilgan vazifalarni sifatli bajara yuzaga keladi.

Chunki, bugungi kunda amalga oshirib kelinayotgan kibertahdidlar va axborot xavfining kundan-kunga yangi turlari paydo bo'lib kelayotganligi ham harbiy xizmatchilardan zamonaviy texnologiyalar sohasi bo'yicha bilim va salohiyatga ega bo'lishlarini talab etadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirib borilmoqda. Qurolli kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini to'liq ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa salohiyatini oshirish borasida zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari to'xtaladigan bo'lsak, hammamizga ma'lumki, dunyoda vaziyat tahlikali bo'lib qolganligini ko'rmoqdamiz. Ayrim davlatlar orasida urushlar to'xtamasdan davom etib kelayotganligi ham insonni xavotirga solishi va boshqa davlatlardan o'z yurtining xavfsizligini ta'minlash borasida ishlarni jadallashtirishni taqozo etadi.

So'ngi paytlarda yuzaga kelayotgan nizoli holatlarda hujum qilmoqchi bo'lgan tomon asosan tirik qo'shinlari bilan emas, aksincha ko'prok inson tomonidan boshqarilmaydigan, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish xususiyatiga ega bo'lgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanib hujumni amalga oshirib kelayotganligi ayon bo'lmoqda. Bunga misol uchun dronlar, ya'ni uchuvchisiz masofadan turib boshqariladigan kichik samolyot (qurilma)lardan, shuningdek axborot xuruji va kibertahdidlardan foydalanib kelinmoqda.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli barcha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlar va harbiy xizmatchilar tarkibining o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda o'tkazishni yanada keng joriy etmoq lozim. Shunda harbiy xizmatchilarda zamonaviy texnologiyalar bo'yicha zarur tushuncha, bilim va ko'nikmalar shakllanib borishi tabiiydir. Shuningdek, bugungi kundagi zamonaviy texnologiyalarning mavjud yangiliklari ularning o'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kirib boradi va bu orqali bilim salohiyatlari oshishiga zamin yaratadi.

2023 yil 24 fevral kuni Prezident Sh.M.Mirziyoev Qarshi shahridagi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtiga tashrifi chog'ida mutasaddilarga dunyoda kuzatilayotgan xavf-xatarlardan kelib chiqib, havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarish, tajriba tariqasida uchuvchisiz qurilmalar yig'ishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berganligi ham bejiz emas.

Albatta, har bir mamlakatning yuksak mudofaasi – uning kuch-qudratini ko‘rsatadi. Mudofaani esa bugungi zamon talabiga mos bilim salohiyat ega, aqlli, irodali, jismonan baquvvat harbiy xizmatchilar ta‘minlaydi. Bunga munosib bo‘lish uchun esa harbiy xizmatchilar har doim o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlab, har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishi zarur. Ana shundagina O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta‘minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarni boshlang‘ich tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘qitish nazariyasida yangi zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa salohiyatini yanada yuksalishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 maydagi “Mudofaa to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-211-II-son qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-560-II-son Qonuni;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 11 aprelda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 sentyabrda “Axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4452-sonli qarori.